

# СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

7 ЖИЛД, 6 СОН

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА

ТОМ 7, НОМЕР 6

INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

VOLUME 7, ISSUE 6



# СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА | INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

№6 (2024) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9297-2024-6>

**Бош муҳаррир:**

**Тўхтасинов Илҳом**

п.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

**Бош муҳаррир ўринбосари:**

**Главный редактор:**

**Тўхтасинов Илҳом**

д.п.н., профессор (Ўзбекистон)

**Заместитель главного редактора:**

**Editor in Chief:**

**Tuhtasinov Ilhom**

DSc. Professor (Uzbekistan)

**Deputy Chief Editor**

## ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ

**Назаров Бахтиёр**

академик. (Ўзбекистон)

**Якуб Умарўгли**

ф.ф.д., профессор (Туркия)

**Алмаз Улви Биннатова**

ф.ф.д., профессор (Озарбайжон)

**Бокиева Гуландом**

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

**Миннуллин Ким**

ф.ф.д., профессор (Татаристон)

**Махмудов Низомиддин**

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

**Керимов Исмаил**

ф.ф.д., профессор (Россия)

**Жўраев Маматкул**

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

**Куренов Рахиммамед**

к.ф.н. (Туркменистон)

**Кристофер Жеймс Форт**

Мичиган университети (АҚШ)

**Умархўжаев Мухтор**

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

**Мирзаев Ибодулло**

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

**Болтабоев Ҳамидулла**

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

**Дўстмухаммедов Хуршид**

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

**Лиходзиевский А.С.**

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

**Сиддикова Ирода**

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

**Шиукашвили Тамар**

ф.ф.д. (Грузия)

**Туробов Бекпулат**

масъул котиб, PhD, доцент  
(Ўзбекистон)

## РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ

**Назаров Бахтиёр**

академик. (Ўзбекистон)

**Якуб Умар оглы**

д.ф.н., профессор (Туркия)

**Алмаз Улви Биннатова**

д.ф.н., профессор (Азербайджан)

**Бакиева Гуландом**

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

**Миннуллин Ким**

д.ф.н., профессор (Татарстан)

**Махмудов Низомиддин**

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

**Керимов Исмаил**

д.ф.н., профессор (Россия)

**Джураев Маматкул**

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

**Куренов Рахыммамед**

к.ф.н. (Туркменистон)

**Кристофер Джеймс Форт**

Университет Мичигана (США)

**Умархаджаев Мухтар**

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

**Мирзаев Ибодулло**

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

**Балтабаев Ҳамидулла**

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

**Дустмухаммедов Хуршид**

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

**Лиходзиевский А.С.**

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

**Сиддикова Ирода**

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

**Шиукашвили Тамар**

д.ф.н. (Грузия)

**Туробов Бекпулат**

отв. секретарь, PhD, доцент  
(Ўзбекистон)

## EDITORIAL BOARD

**Bakhtiyor Nazarov**

academician. (Uzbekistan)

**Yakub Umarogli**

Doc. of philol. scien., prof. (Turkey)

**Almaz Ulvi Binnatova**

Doc. of philol. scien., prof. (Azerbaijan)

**Bakieva Gulandom**

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

**Minnulin Kim**

Doc. of philol. scien., prof. (Tatarstan)

**Mahmudov Nizomiddin**

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

**Kerimov Ismail**

Doc. of philol. scien., prof. (Russia)

**Juraev Mamatkul**

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

**Kurenov Rakhimmamed**

Ph.D. Ass. Prof. (Turkmenistan)

**Christopher James Fort**

University of Michigan (USA)

**Umarkhodjaev Mukhtar**

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

**Mirzaev Ibodulla**

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

**Boltaboev Hamidulla**

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

**Dustmuhammedov Khurshid**

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

**Lixodzievsky A.S.**

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

**Siddiqova Iroda**

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

**Shiukashvili Tamar**

Doc. of philol. scien. (Georgia)

**Turobov Bekpulat**

PhD Ass. prof. Senior Secretary  
(Uzbekistan)

PageMaker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)

ООО Tadqiqot город Ташкент,

улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)

Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,


Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)

Phone: (+998-94) 404-0000

|                                                                                                                                                                                        |     |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| <b>1. Rashidova Manzura Bakhtiyorovna</b><br>THE INFLUENCE OF CONFUCIAN TRADITIONS ON THE KOREAN LANGUAGE.....                                                                         | 5   |
| <b>2. Alisher Rustamov Abduhakimovich</b><br>A SYSTEM OF EXERCISES AND TASKS FOR THE DEVELOPMENT OF WRITTEN SPEECH SKILLS OF HIGH SCHOOL STUDENTS THROUGH PEDAGOGICAL DIAGNOSTICS..... | 10  |
| <b>3. Ziyayeva Kamola Ziyaiddinovna</b><br>THE LINGUISTIC AND CULTURAL DIMENSIONS OF HUMOUR: A STUDY OF SPEECH GENRES AND THEIR ROLE IN COMMUNICATIN.....                              | 15  |
| <b>4. Davlatova Xulkaroy Uktamovna, Botiova Valida Shuhrat qizi</b><br>SPECIFIC ASPECTS OF SPEECH COMMUNICATION AND INTERNET COMMUNICATION.....                                        | 19  |
| <b>5. Jo‘raqulova Mushtariy</b><br>O‘ZBEK TILI PARALLEL KORPUSINING LINGVISTIK TA‘MINOTI.....                                                                                          | 24  |
| <b>6. Pardayeva Iroda Mamayunusovna</b><br>ALISHER NAVOIY IJODIDA AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR TASVIRI.....                                                                                | 29  |
| <b>7. Aliyeva Zebo Akram qizi</b><br>MIRATIVLIK KATEGORIYASI GRAMMATIK KO‘RSATKICH SIFATIDA.....                                                                                       | 35  |
| <b>8. Mirzayev Shukurullo Abduqodir o‘g‘li</b><br>TOPIK II 53- YOZISH SAVOL TURLARI VA YOZISH USULLARI.....                                                                            | 41  |
| <b>9. Bayonkhanova Iroda Furkatovna</b><br>KOREYS TILINI O‘RGANISHDA MAQOLLARDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI.....                                                                     | 47  |
| <b>10. Hasanov Suhrob Shavkat ugli</b><br>SYMBOLS AND ALLEGORIES IN THE PROSE OF ISAJON SULTAN.....                                                                                    | 53  |
| <b>11. Улаш Нематович Бобоев</b><br>МОДЕЛЬ СТРАТЕГИЙ ПЕРЕВОДА НА РУССКИЙ ЯЗЫК ШОК-ТЕЙМЕНТА В СМИ УЗБЕКИСТАНА И ФРАНЦИИ.....                                                            | 60  |
| <b>12. Sadriddinzoda Safiya Shaxobiddinovna</b><br>AMPHIBOLOGY IN ENGLISH RELIGIOUS LEXICOLOGY.....                                                                                    | 65  |
| <b>13. Eshimova Sharofat Kenjaboyevna</b><br>SINESTEZIYA - METAFORANING BIR TURI SIFATIDA.....                                                                                         | 70  |
| <b>14. Umirzoqova Oynisa</b><br>THE COMPARATIVE ANALYSIS OF THE TEMPORAL CATEGORY IN UZBEK AND ENGLISH LANGUAGES.....                                                                  | 76  |
| <b>15. Alibekova Dilrabo Abdiraimovna</b><br>COHISION OF NATURALISM, OPTIMISM AND REALISIM IN THE WORKS OF HECTOR MALOT AND THEODOR DREISER.....                                       | 83  |
| <b>16. Gulirukhsor Ruzikulova Gofur kizi</b><br>A COMPARATIVE ANALYSIS OF FACE-RELATED IDIOMS IN ENGLISH AND UZBEK.....                                                                | 88  |
| <b>17. Xalimova Firuza Rustamovna</b><br>MATN DOIRASIDA BADIY KONSEPTNING SHAKLLANISHI.....                                                                                            | 96  |
| <b>18. Xamidova Dilorom Olimjonovna</b><br>LUQMON BO‘RIXONNING “JAZIRAMADAGI ODAMLAR” ROMANIDA BADIY TILNING IFODALANISHI.....                                                         | 102 |

|                                                                                                                                                                                   |     |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| <b>19. Xaydarova Nigora Tuxtasunovna</b><br>AYOL VA ERKAKLARNING MUHOQOT USULLARI.....                                                                                            | 107 |
| <b>20. Shamshoda Rustamova</b><br>O‘SMIR BOLALAR NUTQIDAGI INNOVATSIYALAR VA ULARNING IFODALANISHI.....                                                                           | 112 |
| <b>21. Karshieva Shokhista Kholikul kizi</b><br>SYNTAX AND SEMANTICS OF ERGATIVE CONSTRUCTIONS.....                                                                               | 119 |
| <b>22. Musayeva Shaxlo Kudratovna</b><br>QISSALARDA IKKINCHI JAHON URUSHI DAVRI VOQEALARI TASVIRINING QIYOSIY TAHLILI. (Nosir Fozilov asarlari misolida).....                     | 125 |
| <b>23. N.J.Sulaymanova</b><br>IJOBIY BAHO PRAGMATIK MAZMUNINI IFODALOVCHI NUTQIY AKTLAR.....                                                                                      | 131 |
| <b>24. Azimbayeva Nargiza Tuxtamuradovna</b><br>O‘ZBEK VA FORS TILLARIDA XULQ-ATVORNI IFODALOVCHI LEKSIK KONSTRUKSIYALAR TASNIFI.....                                             | 135 |
| <b>25. Yuldasheva Dilnoza Bekmuradovna</b><br>THE ROLE OF UZBEK AND ENGLISH PHRASEOLOGY IN CROSS-CULTURAL COMMUNICATION.....                                                      | 139 |
| <b>26. Gulruxsor Xoliyorova</b><br>TERMINOLOGIK TEZAVURSLARNING LINGVISTIK XOSLANISHI.....                                                                                        | 143 |
| <b>27. Alisher Rustamov Abduhakimovich</b><br>THE HISTORY OF TEACHING AND LEARNING ENGLISH WRITING SKILLS IN UZBEKISTAN (POST-SOVIET STATE). PEDAGOGICAL DIAGNOSTIC APPROACH..... | 149 |
| <b>28. Kubaeva Nafisa Alisher qizi</b><br>UNLOCKING THE POWER OF IDIOMS: HOW FIGURATIVE LANGUAGE ENRICHES COMMUNICATION.....                                                      | 154 |
| <b>29. Dilafro‘z Amonova</b><br>KOREYS ADABIYOTI TARIXIDA AYOLLAR IJODIYOTI.....                                                                                                  | 158 |
| <b>30. Obruyeva Gulchexra Xamrokulovna</b><br>ATOQLI OTLARNING FRAZEOLOGIK BIRLIKLAR TARKIBIDA APELLATIVIZATSIYAGA UCHRASHI...164                                                 | 164 |
| <b>31. Esanova Maftuna Bahodirovna</b><br>YUNON-LOTIN TIBBIYOT ATAMALARINING TARIXI VA ULARNING ZAMONAVIY TIBBIYOTDAGI O‘RNI.....                                                 | 168 |
| <b>32. Azimova Yulduz Baxtiyor qizi</b><br>AVTOBIOGRAFIK DISKURSNING UMUMIY TAVSIFI.....                                                                                          | 173 |
| <b>33. Maxmudova Dilshoda Kurbonbayevna</b><br>KOMPOZITSION TASHKILLANISH VA PEYZAJ MODIFIKATSIYASI.....                                                                          | 177 |



ISSN: 2181-9297

www.tadqiqot.uz

# INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

**Xamidova Dilorom Olimjonovna,**

Sharof Rashidov nomidagi

Samarqand davlat universiteti tayanch doktoranti

## LUQMON BO'RIXONNING "JAZIRAMADAGI ODAMLAR" ROMANIDA BADIY TILNING IFODALANISHI

[ps://doi.org/10.5281/zenodo.15069188](https://doi.org/10.5281/zenodo.15069188)

### ANNOTATSIYA

**Badiiy til** – bu adabiyotda va san’atda o’ziga xos tarzda ishlatiladigan til bo’lib, uning asosiy maqsadi o’quvchi yoki tinglovchiga estetik zavq ulashish, his-tuyg’ularni va fikrlarni chuqurroq, teranroq va yanada tasviriy tarzda ifodalashdir. Badiiy tilda oddiy kundalik turmushda foydalaniladigan tilning sodda grammatik va semantik shakllaridan foydalanishdan ko’ra, yanada boy va san’atkorona ifodalash usullari qo’llaniladi. Mazkur maqolada Luqmon Bo’rixonning “Jaziramadagi odamlar” romanining til xususiyatlari biografik hamda madaniy-tarixiy metodlar asosida tahlil qilingan. Muallif hikoyachi qahramon Samad Do’lanovga asardagi asosiy mas’uliyatni yuklagan bo’lib, romandagi barcha personajlarning harakat-holati, portretini tasvirlash va xarakter xususiyatlarini, tabiat manzaralarini ifodalashida adabiy til me’yorlaridan foydalangan. Personajlar nutqini shakllantirishda esa shevaga xos so’z va iboralardan keng foydalanilgan. Yozuvchi zamonaviy mavzudagi ushbu asarida muallif va personajlar nutqini yaratishda badiiy tilning barcha xususiyatlaridan unumli foydalanganligi misollar vositasida dalillangan.

**Kalit so’zlar:** muallif nutqi, personaj nutqi, badiiy til, sheva, frazeologizm, kinoya.

**Хамидова Дилором Олимжоновна,**базовый докторант Самаркандского государственного  
университета имени Шафофа Рашидова

## ВЫРАЖЕНИЕ ХУДОЖЕСТВЕННОГО ЯЗЫКА В РОМАНЕ «ЛЮДИ В ЖАРУ» ЛУКМАНА БОРИХАНА

### АННОТАЦИЯ

Художественный язык — это язык, используемый особым образом в литературе и искусстве, и его главная цель — доставить эстетическое удовольствие читателю или слушателю, а также выразить чувства и мысли более глубоким, содержательным и образным образом. В литературном языке используются более богатые и художественные средства выражения, нежели простые грамматические и семантические формы языка, используемые в повседневной жизни. В статье анализируются языковые особенности романа Лукмана Борихана «Люди в жару» на основе биографического и культурно-исторического методов. Основную ответственность за произведение автор возложил на рассказчика Самеда Доланова и использовал нормы литературного языка для описания действий и портретов всех персонажей романа, а также для выражения черт их характеров и природных ландшафтов. Для

формирования речи персонажей широко используются диалектные слова и фразы. На примерах доказано, что писатель эффективно использовал все возможности литературного языка при создании речи автора и персонажей в этом произведении на современную тему.

**Ключевые слова:** авторская речь, речь персонажа, художественный язык, диалект, фразеология, сарказм.

**Khamidova Dilorom Olimjonovna**

basic doctoral student of Samarkand State University  
named after Sharof Rashidov

## EXPRESSION OF ARTISTIC LANGUAGE IN THE NOVEL "PEOPLE IN THE HEAT" BY LUKMAN BORIKHAN

### ABSTRACT

Artistic language is a language used in a special way in literature and art, and its main purpose is to give aesthetic pleasure to the reader or listener, as well as to express feelings and thoughts in a deeper, more meaningful and figurative way. Literary language uses richer and more artistic means of expression than simple grammatical and semantic forms of language used in everyday life. The article analyzes the linguistic features of Lukman Borikhan's novel "People in the Heat" based on biographical and cultural-historical methods. The author placed the main responsibility for the work on the narrator Samed Dolanov and used the norms of the literary language to describe the actions and portraits of all the characters in the novel, as well as to express their character traits and natural landscapes. Dialect words and phrases are widely used to form the speech of the characters. The examples prove that the writer effectively used all the possibilities of the literary language in creating the speech of the author and characters in this work on a modern theme.

**Key words:** author's speech, character's speech, artistic language, dialect, phraseology, sarcasm.

**Kirish.** Til aloqa, munosabatning asosiy vositasidir. Badiiy til yordamida har bir yozuvchi-shoir hayotning badiiy tasvirini, obrazlarni yaratadi, kitobxon bilan o'zaro muloqot o'rnatadi. Badiiy so'z ijodkorning asosiy qurolidir. Undan qay darajada foydalana olish bu har bir adibning individual qobiliyatiga bog'liq. O'zbek nasrining taraqqiyotiga salmoqli hissa qo'sha olgan yozuvchilardan biri Luqmon Bo'rixon o'z asarlarida badiiy tildan mohirona foydalanadi. Uning ijod namunalarida milliylik va zamonaviylik nafasi o'ziga xos uyg'unlik kasb etadi. Dastlab nasrning kichik janrlarida qalam tebratishni boshlagan adib keyinchalik qissa va romanlar yozishga kirishganida uning badiiy tildan foydalanish imkoniyati kengayadi. "Jaziramadagi odamlar" romanida Luqmon Bo'rixonning Qashqadaryo vohasi koloriti, o'sha hududdagi insonlarga xos so'z va iboralar qo'llaganligi yaqqol namoyon bo'ladi.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Yozuvchi hayot manzaralari va xarakterlarni badiiy til vositasida tasvirlar ekan, nafaqat adabiy tildan, balki jonli xalq tilidan foydalanadi. Bunday yo'l tutish orqali u faqatgina tildan foydalana qolmaydi, balki o'sha tilning rivojiga o'z hissasini qo'shadi. „Adibning yozuvchilik nigohi nechog'lik o'tkir bo'lmasin, tafakkur quvvati qancha baquvvat bo'lmasin, inson tabiatining sir-u asrordan qancha xabardor bo'lmasin, qalami o'tmas, uslubi to'mtoq, tili g'aliz bo'lsa, uning ezgu niyatlari qog'ozda qolib ketadi. Yozuvchi hayot haqidagi tasavvurlarini, ijtimoiy-ma'naviy muammolari haqidagi hukm va xulosalarni kitobxonga til orqali yetkazadi, ...so'z sehri bilan kitobxonga ta'sir ko'rsatib, uning fikriy dunyosi, ruhiy dunyosini harakatga keltiradi." [1; 164-b.] Qolaversa, badiiy tilni ana shu davr yoki umuman til taraqqiyoti tarkibidan ajratib bo'lmaydi. Zero, „yozuvchi hayotiy voqea-hodisalarni tasvirlab, obraz yaratar ekan, u so'zlashuv tili boyliklaridan, jonli tildagi sheva va kasb-hunarga oid til birliklaridan ham, adabiy til me'yorlaridan ham keng foydalanadi" [2; 62-b.]. Badiiy asar insonga zavq, hayajon, tuyg'u, armon, iztirob, baxt, umuman olganda, fikr beradi. Aynan shu fikrni yetkazishda u bevosita til elementlaridan foydalanadi. Shuningdek, xarakter badiiy asarda hayotni in'ikos ettirishning shakli bo'lib maydonga chiqar ekan, til orqali tasvir etiladi. "Til badiiy adabiyot asarida shakl emas, balki shakl yaratishning universal vositasi bo'lib maydonga chiqadi"[3; 197-b.] Darhaqiqat, badiiy asar tili asarning badiiy

mukammalligi va qiymatini baholab, uning o'qishlilik darajasini ko'rsatadi. Tildan qay darajada mohirona foydalana olish bu muallifning mahorati va didiga bog'liq. "Yozuvchi adabiy asar tili ustida tinimsiz mehnat qiladi. Bir asarining tili ikkinchisidan farqlanib turadi. Demak, yozuvchining til mahorati asardan asarga o'sib, boyib boradi"[4; 165-b.]. Badiiy til umumxalq tili bazasida shakllanadi va qisman adabiy til me'yorlariga yaqinlashadi. Shu bilan birga, badiiy til adabiy til me'yorlaridan o'rni bilan chekinadi(mas., shevaga xos unsurlarning ishlatilishi). "Badiiy til o'zida milliy adabiyotimizda uzoq davrlardan beri shakllanib kelgan an'analarining davomchisi sanaladi va shu bois ham unda uning o'zigagina xos bo'lgan unsurlar (an'anaviy sifatlashlar, ramz va majozlar, o'xshatishlar va h.) majmui ham mavjuddir[5; 240-b.]

**Tadqiqot metodologiyasi.** Badiiy asar tilini tadqiq qilish - asar matnining mazmun-mohiyatini o'rganish, yozuvchining so'z qo'llash mahoratini aniqlashga xizmat qiladi. Buning uchun badiiy asar sujet voqealarining badiiy til bilan hamohangligi, unda muallif va personaj nutqidan qay darajada foydalanilganligiga, shuningdek, L.Bo'rixonning "Jaziramadagi odamlar" romani voqealarining adib shaxsiyati bilan bog'liqligiga diqqat qaratiladi.

**Tahlil va natijalar.** Luqmon Bo'rixonning "Jaziramadagi odamlar" romanida muallif nutqi umuman ishtirok etmaydi. Roman to'laqonli I shaxs tilidan – asarning bosh qahramoni Samadning hikoyasi asosida bayon etiladi. Asarning asosiy voqealari 5-sinf o'quvchisi Samad Do'lanovning bolalarcha fikrlashlari bilan boshlangan bo'lsa, yigit yoshiga yetgan, o'z dunyoqarashiga ega yigitning hikoyasi asosida voqealar rivoji o'z cho'qqisiga erishadi. Adib hikoyachi qahramon Samadga asardagi asosiy mas'uliyatni yuklagan ekan, asardagi boshqa personajlarning harakat-holati, tashqi ko'rinishini tasvirlash va xarakter xususiyatlarini, tabiat manzaralarini ifodalashida adabiy til me'yorlaridan foydalangan. Samadning boshqa personajlar bilan suhbatida, monolog va dialoglarda shevaga xos so'zlar ishlatilgan. Shuningdek, asardagi ayrim personajlarning nutqida ular mansub bo'lgan hududga mos sheva unsurlari uchraydi. Shuni ta'kidlash lozimki, romanda Qashqadaryo koloriti yetakchilik qiladi. Buning yaqqol isbotini Safarmurod chavandoz, Maysara yanga, Tog'ay tog'a, Xosiyat xola, Qalqonov muallim, Ulash agronom kabilarning nutqida kuzatish mumkin. Bu esa badiiy asar tili xususiyatlaridan bo'lmish serqatlamlilikni oshirgan. Ayniqsa, Safarmurod chavandozning nutqida o'sha joyga xos bo'lgan so'zlarni ko'plab uchratish mumkin:

"Bizning Tolli ovulimiz, - karillab jo'naydi Safarmurod aka qarshi hujumga o'tarkan. – Bir paytlar bi-ir ko'kayini ko'tarib qolgandi-da. Asl jigitimiz shahri azimda o'qiyapti, deb yosh-u qari ko'ringanga maqtanib yurardi. Biz chavandozlar ardon qolgandik, chalasavod, yovvoyi deb it ham, bit ham bir cho'qillab o'tardi. Bizning ovul... anovi... - chavandoz dovdirligidan kerakli so'zni topolmay, chaynalib-chaynalib qoladi. – Anovi... bizning ovul... dunyada bir jigitdan bo'lak jigit..."[20-b.] Bu borada adabiyotshunos olim Q.Yo'ldoshev quyidagicha fikr bildirgan: "Luqmon romanda shevadagi so'zlardan o'rinli foydalangan. Adabiy tilimiz ayrim mintaqalarda qadimdan ishlatilib kelingan "yashovrab", "serri", "zarilman", "hovar", "qo'shxona", "tizinglab", "qashshang", "so'narib", "ko'lik", "bodichilik", "kaypang", "gurri", "gapchinoz", "qashqatayoq", "o'r" kabi so'zlar bilan boyidi. Ular personajlarning ayni holatdagi ruhiyatini aniq ifoda etishga xizmat qilgan"[6; 335-b.] Personajlarning nutqi orqali ularning yoshi, jinsi, ijtimoiy kelib chiqishi va dunyoqarashini anglash mumkin. Jumladan, adib ayollarning nutqini shakllantirishda ularning o'ziga xos ishlatadigan so'z va jumllaridan foydalangan. Masalan, Xosiyat xolaning nutqini ko'rib chiqsak, " – Qurib ketsin, - dedi u onam bilan uzoq ahvol so'rashgach. – Negadir yuragim siqilib ketdi. Bir hamsoyaginamni gapga to'yg'azay, deb oldingizga chiqib kelaberdim."[6; 138-b.]

Romanda dialoglar yetakchilik qilib, ular asar qahramonlarining xarakter qirralarini teran ochib berish bilan birga, roman syujetidagi izchillikni ta'minlaydi. Dialoglarda frazeologizmlar, shevaga xos so'zlar va o'zbek tilining leksik boyligi keng qo'llanilgan. Masalan,

" – Endi gapni mendan eshitinglar, -deya otam bir-biriga tish qayrayotgan ikki bo'yinsasini o'zicha chalg'itdi. -Moyliyeving kuyinishida jon bor. Ahvolimiz chatoq..."

...Ha, cho‘l qarshilik ko‘rsatyapti, - deb gapida davom etdi otam ichkilikdan qizargan ko‘zlarini bir nuqtaga qadab. – Cho‘lning bo‘ston bo‘lgisi kelmayapti, tamom. Uni hech qachon yengolmaymiz. U baribir qachonlardir, yasama bog‘-u chamanlarni yamlab yutadi, cho‘l baribir asliga – cho‘lligiga qaytadi...”[6; 110-b.]

Roman tilining o‘sha davrda yaratilgan boshqa asarlardan farqi shundaki, unda kinoyaviy tasvir ustunlik qiladi. Yozuvchi asarning hech bir o‘rnida o‘zining ijobiy yoki salbiy qarashlarini ifodalamaydi, balki personajlarning xatti-harakati va nutqlarini kinoyaviy tarzda tasvirlaydi. Masalan, 41-sovxozi direktori Chinor Moyliyevning yutuqlarini ko‘ra olmagan kishilar uning ustidan turli ishlar qilishi quyidagicha ifodalangan:

“Bu cho‘loq chatoq chiqdi, - deya o‘zaro shivirlashibdi qop-qora kulga aylangan bu “mazlumlar to‘dasi”. – Buning bir sehrgarligi bor-ov... Davay, Fanlar akademiyasiga xat yozamiz, bizda ruhlar ila so‘zlashuvchi bir jodugar bor deymiz, olib borib bi-ir tekshiringlar deymiz, tekshirib-tekshirib o‘sha yoqlarda noyob nusxa sifatida olib qolsalaring ham mayli, deb yozamiz. Ilm yo‘lida sadqai bir odam, deb yozamiz...”

Yozdilar! E, vohki, Fanlar akademiyasining manzilini topisholmagandek, afsus-nadomatlar ila sirli maktubni markazdagi tekshiruv organlaridan biriga jo‘natdilar.”[6; 14-b.] Asarning ushbu tomoni xususida fikr bildirgan adabiyotshunos Q.Yo‘ldoshev ta’kidlaganidek, “Roman boshdan-oyoq kinoyaga yo‘g‘rilgan, ifodada piching yetakchilik qiladi” [6; 330-b.]. Hatto asarning ayrim qahramonlarining nomlanishida ham ustalik bilan kinoyadan foydalanganligini kuzatish mumkin. Masalan, oqsoq va nimjon direktorning ismi Chinor bo‘lsa, na shoirlikni va na agronomlikni eplolmaydigan odamni Ulash agronom-shoir deb atashadi, garchi oti bo‘lmasa-da Safarmurod akani chavandoz deyishadi. Ayniqsa, O‘roq bilan Lolaxonning to‘yidan keyin O‘roqning onasining qay darajada o‘zgarib ketganligini ta’kidlash uchun Xosiyat xolani opa, yanga deb atay boshlanganligi kinoyaviy tarzda ifodalanadi: “Xosiyat xola – Xosiyat opa, yo‘q-yo‘q, Xosiyat yanga bo‘lib ketgan edi o‘sha kunlari. Sidirg‘igina o‘rab yuradigan ro‘molini qiya-qiya qo‘ndirib, oq oralay boshlagan sochlarini allanechuk to‘zg‘itib, quloq-chakkasidan toshirib qo‘yadi. Tevaraklari salqib jo‘nagan ko‘zlarining surmasi quyuqlashgan, umrida dog‘langan yog‘dan bo‘lak yog‘ ko‘rmagan yuzlari ajabtovur upa-eliklardan silliqlashgan, ishqilib, Fayzulla aka o‘z tanmahramini hamishagidek kampir, deya chaqirishga istihola qilib qolgan edi.”[6; 101-b.]

Yozuvchi tabiat manzaralari, peyzaj tasvirida takror, o‘xshatish va sifatlash kabi badiiy tasvir vositalaridan o‘rinli foydalangan: “To‘lishgan kelinchakning tip-tiniq chehrasiday tip-tiniq osmon boshim uzra engashib yuzlarimdan o‘pib-o‘pib olayotgandek, mayin, iliq nafasidek shabada quloqlarimga sirli-sirli shivirlayotgandek tuyularkan xuddi qanot bog‘lagan kabi havolanib-havolanib olg‘a intilar edim.”[6; 262-b.] Mazkur keltirilgan parchadan ko‘rish mumkinki, takrorlar asar badiiy tilining ta’sirdorligi va obrazlilikini oshirgan. Chunki badiiy asar so‘z orqali voqea-hodisani ko‘rsatadi va mana shu so‘zlarning “yuki” vositasida asar qahramonining ichki holatini va u bajarayotgan xatti-harakatni tasavvur qilish mumkin: “Bahor Fayzulla aka xonadonida biqinib yotgan ekan! Bahor bekinmachoq o‘ynayotgan sho‘x-shaddod kelinchakday to‘satdan otilib chiqdi. Tovusdek tovlanib ko‘cha-ko‘ydan chopib o‘tdi, yellar bilan yelishib, dala-dashtni quchoqlab o‘pdi. Kengsoyning keng qir-adirlari hayitni kutib yotgan kambag‘alday yag‘ir yelkalariga omonatgina yashil to‘n kiydi.”[6; 100-b.] Demak, tabiat hodisalarini insonlarning yurish-turishi va qiliqlari bilan muqoyasa qilinishi adibning peyzajning mohir ustasi ekanligini anglatadi.

Xulosa va takliflar. Badiiy asar tilini tadqiq qilish asarning mohiyatini to‘la anglashga xizmat qiladi. Luqmon Bo‘rixon “Jaziramadagi odamlar” romanida o‘zbek tilining boy imkoniyatlaridan foydalanishga harakat qilgan. Mazkur romanida milliylik bilan zamonaviylik hamohang bo‘lib, adabiy til me‘yorlaridan uzoqlashmagan holda shevaga oid so‘z va iboralardan unumli foydalandi. O‘zbek tili lug‘atini yanada boyitdi. Xullas, yozuvchi har bir asarining matniga mas‘uliyat bilan qaragan va bu keng tadqiq qilinish imkoniyatiga ega.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Sharafiddinov O. Haqiqatga sadoqat. Toshkent, G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1989, – B.164.
2. Zunnunov A., Xotamov N. Adabiyot nazariyasidan qo'llanma. Toshkent, O'qituvchi, 1978. – B.62.
3. Sulton I. Adabiyot nazariyasi. Toshkent, O'qituvchi, 1980, 197-200-b.
4. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. Toshkent, O'zbekiston, 2001. – B. 560.
5. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. Toshkent, Akademya nashr, 2018. – 480 b.
6. Luqmon Bo'rixon. Jaziramadagi odamlar. T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2005. – B. 336.
7. Qayumov A. Hozirgi o'zbek nasrida milliy xarakter va badiiy mahurat. Filol.fan.bo'y.fals.dok(Phd)diss. Farg'ona, 2018. –160 B.
8. Turdiyeva Y. (2024, January). Luqmon Bo'rixonning “Jaziramadagi odamlar” romanida mahalliy kolorit. In Konferensiyalar| Conferences (Vol. 1, No. 4, Pp. 344-347).
9. Ahmadjonova M., Hakimov, M. (2024). Badiiy asar tilining lingvistik tahlili. Worldly knowledge konferens, 8(1), 344-346.
10. Xamidova D. (2023). Luqmon Bo'rixonning “Jaziramadagi odamlar” romanida ruhiyat. Farg'ona davlat universiteti, (6), 75-75.

# СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

7 ЖИЛД, 6 СОН

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА

ТОМ 7, НОМЕР 6

INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

VOLUME 7, ISSUE 6

Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
ООО Tadqiqot город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000